# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUL / 7-SON, I-QISM**

Google Scholar
OpenAIRE
INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.*
*I-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO‘LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O‘RNI ... 12
Urakova Maxsad Xakimovna
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ... 18
Yusupova Jamila Karamatdinovna
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS ... 21
Kholdorov Sardor Umarovich
O‘ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ... 28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI ... 33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА ... 38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI ... 42
Muzaffarov Akmal Axmadovich
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ... 49
Ирматова Азиза Бахрамовна
OROL BO‘YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ... 56
Akramova Feruza
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION ... 68
Hao Xiaohui
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA’MINLASHDA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ... 76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o‘g‘li
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI ... 83
Inobatov Abror Boshlarovich
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ ... 92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ ... 97
Ташмухамедова Карима Саматовна
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ ... 104
Тарават Абдул Салам
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ... 112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH ... 117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich

O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH ... 121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA) ... 125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi

MHXSDA TUSHUM VA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH ... 132
Eshonqulov Akmal Qudratovich

BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ... 138
Latipov Jahongir Shavkatovich

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI ... 144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI ... 150
Usmanova Gulida Valiyevna

BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI ... 156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ... 163
Sadikova Dildora Abdulla qizi

MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI ... 167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ ... 172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи

SANOAT KLASTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI ... 178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ... 183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI ... 188
Babadjanov Akmal Shuxratovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI ... 193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li

O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI ... 198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li

TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ... 202
Kilichov Nazar Bafoyevich

TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI ........ 208
Yusupova I.R.
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIYIQTISODIY SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI ........ 212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА ........ 222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI ........ 227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI ........ 240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR ........ 244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH ........ 248
Qurbonov Alisher Boboqulovich
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES ........ 256
Kamola Bobonarova
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI ........ 262
Zohidov Jamshid Botirxonovich
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI ........ 267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH ........ 279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ........ 288
H.S. Bobojonov
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSIYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI ........ 294
Mamanazarov A.A.
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQARISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI ........ 299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 308
Axmetova Salima Seytovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

HUDUD IQTISODIYOTIGA “YASHIL INVESTITSIYALAR”NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI ........ 313
To‘xtayev Maqsud Mansurovich
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) ........ 321
Suyunov R.G‘.
SOLIQ MA’MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI ........ 326
Turdaliyev Eldor Sho‘xratjon o‘g‘li
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH ........ 334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 340
Siroj Zarina Rustambekovna
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN ........ 347
Toshxo‘jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI ........ 354
G‘iyosov Ilxom Karimovich
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL ........ 361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 369
Turayeva Gulizahro
INNOVATSION EKOTIZIMDA FAN–TA’LIM–ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI ........ 374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O’SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI ........ 378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH ........ 386
Kaxorov Ulug‘bek
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR) ........ 389
Abdukarimov Akbar G‘anisherovich
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI IMITATSION MODELLASHTIRISH ........ 393
Raximov Azizbek Zokirovich
OROLBO‘YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA’LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI ........ 400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI ........ 404
Kodirova Xurshida Ismoilovna
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 409
Yusupov Ulug‘bek Shukrullayevich
Omonov Abdurazzoq Komil o‘g‘li

KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH........416
Xamidova Soro
Toshpulatova Laylo

# KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH

**Xamidova Soro**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi magistranti
Email: sarakhamidova28@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3090-611X

**Toshpulatova Laylo**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
"Xalqaro iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent
Email: ltashpulatova@uwed.uz
ORCID: 0000-0002-9142-6191

**Annotatsiya:** Global darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, ishlab chiqarishning ekologik yuklamasi jahon maydonida kuzatilayotgan polikrizis holatini yanada keskinlashtirmoqda. Kreativ va madaniy sanoatlarning nisbatan kamroq ekologik zarar keltirishi, ijtimoiy jihatdan inklyuziv ekanligi va raqamli mahsulotlarni ishlab chiqishga bo'lgan yuqori potensiali uning ahamiyatini tobora dolzarblashtirmoqda. Ushbu maqolada kreativ iqtisodiyotning tarkibiy strukturasi, tarmoqlarining sinflanishi va ularning turli olimlar tomonidan berilgan tasniflari tahlil qilingan. Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyotning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga bog'liqlik xaritasi ishlab chiqilgan va u asosida aynan qanday maqsadlarning "targetlariga" kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish orqali erishish mumkinligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ va madaniy sanoatlar, barqaror o'sish, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM), BRM targetlari.

**Аннотация:** Социально-экономическое неравенство на глобальном уровне, экологическая нагрузка на производство еще больше обостряют состояние поликризиса, наблюдаемого на мировой арене. Относительно меньший экологический ущерб и социальная инклюзивность креативных и культурных индустрий, а также их высокий потенциал для разработки цифровых продуктов делают их значимость все более актуальной. В данной статье анализируется структурная структура креативной экономики, классификация ее отраслей и их классификации, представленные различными учеными. В то же время разработана карта зависимости креативной экономики от Целей устойчивого развития, на основе которой показано, какие именно «цели» могут быть достигнуты за счет развития креативной экономики.

**Ключевые слова:** Креативные и культурные отрасли, устойчивый рост, Цели устойчивого развития (ЦУР), Таргеты ЦУР.

**Abstract:** Socio-economic inequality at the global level and the environmental burden on production further exacerbate the poly-crisis state observed on the world stage. The relatively lower environmental damage and social inclusiveness of creative and cultural industries, as well as their high potential for developing digital products, make their significance increasingly relevant. This article analyzes the structural structure of the creative economy, its sectoral classification, and their classifications presented by various scholars. At the same time, a map of the dependence of the creative economy on the Sustainable Development Goals has been developed, based on which it is shown which "goals" can be achieved through the development of the creative economy.

**Keywords:** Creative and cultural sectors, sustainable growth, Sustainable Development Goals (SDGs), SDG targets.

## KIRISH

XXI asrning taraqqiyot darajasi va globalizatsiyaning tobora mamlakatlarni birlashtirishi jahon iqtisodiyotida oldin qo'llanilmagan tushunchalar, ko'plab integratsiyalar, yangi iqtisodiy trendlar va hatto yangi ishlab chiqarish

hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini paydo qilmoqda. O‘tgan asrlardan tubdan farq qiluvchi yashash standartlari va aholi sonining keskin ko‘payishi an’anaviy sohalarning barchani ish bilan ta’minlay olmasligini va ehtiyojlarni to‘liq qondira olmasligini ko‘rsatmoqda. Aynan “cheklangan resurslar va cheksiz ehtiyojlar” muammosi iqtisodiyotning yildan yilga ko‘p qirrali bo‘lishini talab qilmoqda. Yuqoridagi muammolarni hisobga olganda, jahon iqtisodiyotining joriy holati “yosh” sohalarning o‘rnini qayta belgiladi. Kreativ iqtisodiyot ham shunday sohalar qatoridandir.

Bundan tashqari, kreativ iqtisodiyot tarkibidagi tarmoqlarning boshqa tarmoqlarga qaraganda atrof-muhitga kamroq zarar keltirishi va so‘nggi yillarda “Z avlod” uchun mehnat inqirozini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ishsizlik muammosini yecha olish potensiali ushbu sohani bevosita barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘ladi. Darhaqiqat, barqaror rivojlanish tamoyillariga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish barqarorlik, ijtimoiy tenglik va atrof-muhitga zararning kamayishi bilan parallel ravishda mavjud bo‘lishi kerak. Kreativ iqtisodiyot esa “gamer”, “kontent-maker”, “game-developer” kabi ko‘plab yangi kasblarni taqdim etmoqda. Ushbu kasblar san’at va texnologiya uyg‘unligi bo‘lib, ular yosh avlodning ahamiyatli qismini bandlik bilan ta’minlashi mumkin. Bundan tashqari, hunarmandchilik va boshqa qo‘l mehnatlari ham kreativ iqtisodiyot tarmoqlariga xos bo‘lib, ular ekologiyaga juda minimal darajada ta’sir ko‘rsatadi. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish orqali BRMlarni samarali amalga oshirish mumkin. Shuning uchun kreativ iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda targetlarning kreativ iqtisodiyot strukturasiga mosligi izlanmoqda. Ushbu tadqiqotning ham maqsadi kreativ iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning bog‘liqligini BRMlar tarkibini tahlil qilish orqali aniqlash hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi John Howkins tomonidan ilk bor mustaqil iqtisodiy toifa sifatida talqin qilinadi. Uning ta’rifiga ko‘ra, intellektual mulkka asoslangan barcha tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq sohalar birgalikda kreativ iqtisodiyotni tashkil etadi [1]. Kreativ iqtisodiyotning kengroq ma’nosi Richard Florida tomonidan keltirilgan nazariyada berilgan va u yerda, asosan, kreativ sinfga ta’rif keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra, kreativ sinf — asosan, shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy dinamizmni yaratadigan mutaxassislar, tadqiqotchilar va rassomlar guruhi [2]. Richard Keyves o‘z ishlarida ijodiy sanoatlarni 7 ta iqtisodiy xususiyat asosida tavsiflaydi va ijodiy sanoatning o‘zi noyob emas, balki ijodkorlik bilan harakatlanadigan ijodiy sanoat tarmoqlari biznes jarayonlariga, talab-taklif zanjiriga yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradi hamda mamlakat rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarini qamrab oladi, degan g‘oyani ilgari suradi [3].

Hozirgi vaqtda kreativ iqtisodiyot so‘zi: “kreativ sanoat”, “kreativ va raqamli sanoat”, “kreativ va madaniy sanoat”, Inter-American Development Bank (IDB) tomonidan esa “olovrang iqtisodiyot” (La Economía Naranja) [4] degan so‘zlar bilan bir vaqtda ishlatiladi. Ushbu iqtisodiyotning olovrang deb atalishiga sabab kreativlik madaniyat, san’at, media, dizayn, AKT, moda, reklama va boshqa ijodiy tarmoqlar asosida rivojlanayotgani hamda bu sohalarning nisbatan yosh va yorqinligidadir. Shu bilan birga, “olovrang iqtisodiyot” ramziy ma’noda ijod, madaniyat, innovatsiya va energiya bilan bog‘liq bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” ekologik barqarorlikni bildirgani kabi metaforik ma’noga ega. Kreativ iqtisodiyot tushunchasi nafaqat olimlar, balki bir nechta mahalliy va xalqaro tashkilotlar: UNESCO (2010), UNCTAD (2010) [5], WIPO (Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti, 2003) [6], Buyuk Britaniya Madaniyat, OAV va Sport Departamenti (2010) [7] hamda Lotin Amerikasi va Karib dengizi Iqtisodiy Komissiyasi (2013) [8] tomonidan ham turlicha talqin qilingan.

Xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, UNESCO, WIPO) kreativ iqtisodiyotni asosan intellektual mulk huquqi bilan bog‘lashsa, aynan bir hukumat yoki mintaqaga tegishli tashkilotlar (Britaniya Konsulligi, Lotin Amerikasi va Karib dengizi Iqtisodiy Komissiyasi) kreativ iqtisodiyotga ta’rif berganda intellektual mulk tushunchasini qo‘llamaydilar. Bunga asosiy sabab shundaki, xalqaro tashkilotlar kreativ iqtisodiyotni global savdo va intellektual mulk tizimi orqali tartibga solishga intiladilar. Mahalliy, mintaqaviy tashkilotlar esa uni mahalliy bandlik va madaniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladilar. E’tiborli jihati shundaki, xalqaro tashkilotlar kreativ iqtisodiyotning ta’rifini John Howkinsning kreativ iqtisodiyot borasidagi fikrlaridan keyin turli hisobotlar, analitik tadqiqotlar va press-relizlarda keltirishni boshlaganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barcha o‘rganilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda quyidagi mohiyatni keltirib chiqarish mumkin: kreativ iqtisodiyot — ijodkorlik, madaniy meros, intellektual mulk va raqamli innovatsiyalarga asoslangan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda ularni tijoratlashtirish jarayonlari majmui. Yuqorida aytib o‘tilgani kabi, kreativ iqtisodiyot juda ham keng tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga bir nechta tarmoqlarni kiritadi. Hozirgi vaqtda kreativ iqtisodiyot so‘zi: “kreativ sanoat”, “kreativ va raqamli sanoat”, “kreativ va madaniy sanoat”, Inter-American Development Bank (IDB) tomonidan esa “olovrang iqtisodiyot” (La Economía Naranja) degan so‘zlar bilan bir vaqtda ishlatiladi. Ushbu iqtisodiyotning olovrang deb atalishiga sabab kreativlik madaniyat, san’at, media,

dizayn, AKT, moda, reklama va boshqa ijodiy tarmoqlar asosida rivojlanayotgani hamda bu sohalarning nisbatan yosh va yorqinligidadir. Shu bilan birga, “olovrang iqtisodiyot” ramziy ma’noda ijod, madaniyat, innovatsiya va energiya bilan bog‘liq bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” ekologik barqarorlikni bildirgani kabi metaforik ma’noga ega.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi nafaqat olimlar, balki bir nechta mahalliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan ham turlicha talqin qilingan. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktyabrdagi “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ–970-son[1] Qonuniga ko‘ra esa kreativ iqtisodiyotga ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalar hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘i deya ta’rif berilgan [9]. O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari mintaqaviy darajada olib borilmoqda va kreativ iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra o‘rganib chiqilmoqda (1-jadval).

1-jadval.
Xalqaro va mahalliy tashkilotlar tomonidan kreativ iqtisodiyotga berilgan ta’riflar[2]

| Tashkilot nomi | Berilgan ta’riflar |
|---|---|
| Birlashgan millatlar tashkiloti ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (UNESCO) 2010 | Kreativ va madaniy sanoatlar bu yaratilishi, ishlab chiqarilishi va tijoriylashtirilishi madaniy tabiiy va nomoddiy bo‘lgan ijodiy kontentlarni birlashtiradigan sohalardir. Ushbu kontentlar odatda mualliflik huquqi bilan himoyalanadi va mahsulot yoki xizmat shaklida bo‘lishi mumkin. Barcha badiiy va madaniy ishlab chiqarishlardan tashqari, ular arxitektura va reklama sohasini ham o‘z ichiga oladi[3]. |
| Birlashgan millatlar tashkiloti savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) 2010 | Kreativ sanoatlar kreativ iqtisodiyotning asosida turadi va ular asosiy kirish elementi sifatida ijodkorlik va intellektual kapitaldan foydalangan holda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish sikllari sifatida ta’riflanadi [5]. |
| Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) 2003 | Mualliflik huquqi asosidagi sanoatlar bu, mualliflik huquqi bilan himoyalangan materialning yaratilishi, ishlab chiqarilishi, namoyishi, ko‘rsatishi, ulashishi, tarqatilishi yoki chakana savdosi bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan, shuningdek bir-biriga bog‘liq bo‘lgan yoki shunga ixtisoslashgan sohalardir[6]. |
| Buyuk Britaniya madaniyat, OAV va sport departamenti (DCMS) 2010 | Kreativ sanoatlar bu ijodkorlik, shaxsiy iste’dod va mahoratga asoslangan faoliyatlar bo‘lib, ular intellektual mulkni yaratish va undan foydalanish orqali ish o‘rinlari va boylik yaratish salohiyatiga ega[7]. |
| Lotin Amerikasi va Karib dengizi iqtisodiy komissiya (ECLAC) 2013 | Kontent sanoatlari quyidagilardan iborat: nashriyot, kino, televideniye, radio, fonografiya, mobil kontent, mustaqil audiovizual ishlab chiqarish, veb-kontent, elektron o‘yinlar va raqamli konvergensiya uchun ishlab chiqarilgan kontent[8]. |

Xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, UNESCO, WIPO) kreativ iqtisodiyotni asosan intellektual mulk huquqi bilan bog‘lashsa, aynan bir hukumat yoki mintaqaga tegishli tashkilotlar (Britaniya Konsulligi, Lotin Amerikasi va Karib dengizi Iqtisodiy Komissiyasi) kreativ iqtisodiyotga ta’rif berganda intellektual mulk tushunchasini qo‘llamaydilar. Bunga asosiy sabab shundaki, xalqaro tashkilotlar kreativ iqtisodiyotni global savdo va intellektual mulk tizimi orqali tartibga solishga intiladilar. Mahalliy, mintaqaviy tashkilotlar esa uni mahalliy bandlik va madaniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladilar.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, klassifikatsion tahlil hamda konseptual sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud ilmiy adabiyotlar asosida kreativ iqtisodiyot, kreativ sanoatlar hamda madaniy sanoatlar tushunchalarining nazariy asoslari o‘rganilib, ularning mazmun-mohiyati qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy tashkilotlar tomonidan berilgan ta’riflar solishtirilib, ushbu tushunchalarning konseptual jihatdan farqlari aniqlandi. Tadqiqotning keyingi bosqichida esa BMTning Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) hamda D. Throsby tomonidan taklif etilgan kreativ va madaniy

1 https://lex.uz/uz/docs/-7129258
2 Manba: Jadval turli manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlangan
3 https://www.unesco.org/en/query-list/c/creative-economy

tarmoqlar klassifikatsiyasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning oʻrtasidagi farq va oʻxshashliklar aniqlanib, vizual grafik koʻrinishida tasvirlandi. Yakuniy bosqichda analitik xaritalashtirish usuli asosida kreativ iqtisodiyot tarmoqlarining BMT tomonidan belgilangan BRM bilan oʻzaro bogʻliqligi oʻrganilib, qaysi kreativ tarmoqlar barqaror rivojlanish maqsadlariga bevosita yoki bilvosita taʼsir koʻrsatishi tizimlashtirildi.

Kreativ sohalar yildan yilga koʻpaymoqda va kreativ iqtisodiyot qamrovini borgan sari kengaytirmoqda. Qaysi tarmoqlar kreativ iqtisodiyot tarkibiga kirishi UNCTAD tomonidan berilgan maxsus hujjatlar doirasida batafsil aytib oʻtilgan. Unga koʻra, kreativ iqtisodiyotning umumiy 10 ta tarmogʻi va har bir tarmoqqa taalluqli 75 ta kreativ tovar va xizmatlarning ISIC Rev. 5 (Barcha iqtisodiy faoliyat turlarining standart sanoat tasnifi) ga koʻra standart nomenklaturasi keltirilgan [11]. Ammo kreativ iqtisodiyotning tarmoqlarga ajralishi David Throsbyning “Konsentrik doiralar” modelida batafsil ochib berilgan va ular: turdosh tarmoqlar, kengroq qamrovli milliy sanoatlar, boshqa asosiy kreativ sanoatlar va asosiy kreativ sanʼatga ajratilgan [12]. Kreativ iqtisodiyot tarmoqlari UNCTAD hisoboti boʻyicha 10 ta tarmoqqa, “Konsentrik doiralar modeli”da esa 4 ta asosiy tarmoqqa ajratilgan edi. Shunday boʻlishiga qaramasdan, “Konsentrik doiralar” modeli va UNCTAD bergan variantlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrish mumkin. Konsentrik doiralar modeli va UNCTADning kreativ iqtisodiyot tarmoqlarini tasniflashida yagona kesishmagan nuqta mavjud va u “Tadqiqot va ishlanmalar” tarmogʻi (1-rasm).




**1-rasm. Konsentrik doiralar modeli va UNCTAD klassifikatsiyalari oʻrtasidagi bogʻliqlik**

Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tayyorlangan hisobotga koʻra, ijodiy sanoatdagi ilmiy-tadqiqot ishlari mudofaa, qishloq xoʻjaligi, sogʻliqni saqlash va taʼlim kabi turli sohalarda qoʻshimcha foyda keltirdi va kreativ sanoat fan va texnologiyani sanʼat hamda gumanitar fanlar bilan birlashtirgan kichik tarmoqlarda sezilarli oʻsish salohiyatiga taʼsir koʻrsatadi. Kreativ iqtisodiyot faqatgina mamlakatlarning ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish tarmoqlarini rivojlantiribgina qolmay, barqaror oʻsishga ham oʻzining sezilarli hissasini qoʻshmoqda. “Barqaror rivojlanish” paradigmasi mamlakatlarning iqtisodiy oʻsish haqidagi tushunchalarini qayta koʻrib chiqishga undamoqda. U iqtisodiyot va atrof-muhitdagi, shuningdek, hozirgi va kelajakdagi talablar oʻrtasidagi muammolarni hal qilishga intilgani uchun keng qoʻllanilish imkoniyatiga ega [13].

Kreativ iqtisodiyot rivojlanishi esa yangi va munosib ish oʻrinlarini yaratish, barcha uchun mos va xavfsiz “aqlli” shaharlar infratuzilmasini ishlab chiqish, madaniy turizmni rivojlantirish va yashil texnologiyalarni joriy etish yoʻlida mamlakatlarning barqarorlikka erishishi uchun koʻprik vazifasini bajarishi mumkin. Kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga taʼsirini uning BRMlarning barchasi bilan bogʻliqligida koʻrish mumkin.

Ammo BRMlar har tomonlama o‘z ichida bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ularning 5 tasi tanlanib, kreativ iqtisodiyot bilan qanday bog‘langanini aniqlash mumkin (2-rasm).




**2-rasm. Kreativ iqtisodiyot tarmoqlarining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan o‘zaro bog‘liqligi**[4]

Kreativ iqtisodiyot barqaror rivojlanishning haqiqiy drayveriga aylanishi mumkin. Uning rivojlanishi bir nechta BRMga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni bir nechta BRMning kreativ va madaniy sanoatlar sinflari bilan bog‘liqligida ko‘rish mumkin.

BRM 4: Sifatli ta’lim — vazifa 4.a.

Kreativ iqtisodiyot hozirgi kunga kelib barcha uchun xavfsiz, zo‘ravonliksiz, inklyuziv va samarali ta’lim muhitini ta’minlaydigan ta’lim muassasalarini qurish va takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu vazifa, asosan, kreativ iqtisodiyotning dasturiy ta’minot, video o‘yinlar, kompyuter va veb-xizmatlari qismi bilan bog‘lanadi. Raqamli ta’lim ilovalari va onlayn platformalar ijtimoiy va iqtisodiy bo‘shliqlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi: ular geografik to‘siqlarni yengib o‘tib, o‘quvchilarga istalgan joydan moslashtirilgan kontent orqali ta’lim olish imkonini beradi. Bu jihatlar muammolarni bartaraf etish va kreativ iqtisodiyotga xizmat qiladi, chunki inklyuziv va raqamli ta’lim orqali ko‘proq odamlar malaka va ko‘nikmalarni egallaydi, bu esa o‘z navbatida mehnat bozorida innovatsiyalarni kuchaytiradi hamda iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi [14]. Bunday dasturiy ilovalar va ta’limning gamifikatsiya qilinishi hozirgi kunga kelib “EdTech” atamasi bilan ko‘proq qo‘llaniladi.

BRM 5: Gender tengligi — vazifa 5.b.

4 Manba: muallif ishlanmasi.

UNESCO bosh direktori Audrey Azoulay fikricha, texnologik nuqtayi nazardan, raqamli gender tafovuti ayollar va qizlarni siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ortda qoldirmoqda, natijada izolyatsiya hamda vositalar va ishonchli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Gender tengligiga erishish ushbu zaifliklarni bartaraf etishni anglatadi va bu, ayniqsa, madaniy va ijodiy sohalarda ishlaydigan ayollar uchun muhimdir [15]. Ushbu muammo BRMning 5-maqsadi va 5.b vazifasida ham oʻz aksini topgan.

BRM 8: Munosib ish oʻrinlari va iqtisodiy oʻsish — vazifa 8.2; 8.3; 8.9.

Kreativ iqtisodiyot bilim va intellektual mulkka tayangan holda iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi hamda an'anaviy sanoat tarmoqlariga innovatsion dizayn va raqamli texnologiyalarni olib kiradi. Bu, ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashda muhim. Kreativ xablar va kovorkinglar norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ijodkorlarni rasmiy tadbirkorlikka oʻtkazishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotning institutsional mustahkamligini va yangi ish oʻrinlari yaratilishini kafolatlaydi. Milliy hunarmandchilik, festivallar va raqamli kontent orqali mahalliy madaniyatni targʻib qilish yangi ish oʻrinlarini tashkil etish va milliy mahsulotlar eksportini koʻpaytirishga imkon yaratadi.

BRM 9: Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma — vazifa 9.5.

Kreativ iqtisodiyot tadqiqot va ishlanmalarni nafaqat laboratoriya doirasida, balki amaliy va foydalanuvchiga yoʻnaltirilgan yechimlar orqali boyitadi. Kreativ industriyalar, ayniqsa, sanoat dizayni, raqamli media va IT-kreativlik sohalari yuqori texnologiyali mahsulotlarning tijoriy jozibadorligini va funksionalligini oshiradi. Misol uchun, video oʻyinlar sanoati uchun yaratilgan grafik ishlov berish texnologiyalari hozirda sun'iy intellekt va murakkab bulutli hisoblashlarning asosini tashkil etmoqda. Shunday qilib, kreativ yondashuv ilmiy bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirib, innovatsion ekotizimning barqarorligini ta'minlaydi.

BRM 11: Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari — vazifa 11.2.

Kreativ iqtisodiyot BRMning 11.4-vazifasiga (dunyoning madaniy va tabiiy merosini himoya qilish va asrash boʻyicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish) juda kuchli ijobiy ta'sir koʻrsatadi. Bu soha madaniy merosni shunchaki saqlanadigan antikvariat emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi jonli aktivga aylantirishi mumkin. Shuningdek, raqamli kreativlik (VR/AR texnologiyalari) yoʻqolib borayotgan hunarmandchilik namunalarini virtual arxivlash va dunyoga targʻib qilish orqali ularning umrini uzaytiradi. Misol uchun, Nepaldagi Tribhuvan universiteti madaniy meros obyektlarini saqlab qolish uchun maxsus 3D modellashtirish treninglarini tashkil etgan. Bu esa tarixiy obyektlarga virtual tashrif buyurish imkoniyatini beradi [16].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ iqtisodiyot atamasi ilk marta 2001-yilda tilga olingan boʻlsa-da, "kreativ sanoatlar", "kreativ soha" va "kreativ jamiyatlar" kabi tushunchalar 1960–1980-yillardan boshlab turli manbalarda qoʻllanila boshlangan. Ushbu iqtisodiyot oʻz ichiga asosiy madaniyat mahsullari hisoblanuvchi musiqa, teatr, rassomchilik, milliy hunarmandchilik, adabiyot va teatrdan boshlab, kinematografiya, video oʻyinlari, tadqiqot va ishlanmalar, yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan, ijodiy gʻoyaga asoslangan madaniyat mahsullarini oladi.

Kreativ iqtisodiyot sohalarining ilk tashkiliy asoslari David Throsby tomonidan, keyinchalik esa UNCTAD hisobotlarida keltirilgan. Kreativ iqtisodiyot oʻz oʻrnida global muammolardan biri boʻlgan ishsizlikni kamaytirishda asosiy oʻrin tutish bilan birga, boshqa iqtisodiyotlarga qaraganda kamroq karbon izlarini qoldirishi va ijtimoiy hamda iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishi mumkin. Bu bilan kreativ iqtisodiyot Barqaror Rivojlanish Maqsadlari – 2030 ga erishish uchun asosiy drayver boʻlib xizmat qiladi. Muallif tomonidan aniqlanganidek, kreativ iqtisodiyotning sohalari BRM 4, 5, 8, 9, 11ni rivojlantirishga koʻmaklashadi. Bundan tashqari, boshqa BRMlarga ham toʻgʻridan toʻgʻri yoki bilvosita oʻzaro ta'sir mavjud.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. John Howkins, The creative economy, how people make money out of ideas-second edition 2001, 5-10 betlar
2. Richard Florida, The Rise of the Creative Class: Chapter_1: The Creative Revolution 2002, 30-35-betlar https://paas.org.pl/wp-content/uploads/2016/08/f
3. Richard Keyves, Creative Industries: Contracts Between Art and Commerce (Harvard University Press, 2000)
4. Buitrago Restrepo, Pedro Felipe, Duque Márquez, Iván, The Orange Economy: An Infinite Opportunity 2013, 7-8-bet http://dx.doi.org/10.18235/0012837
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Creative Economy Report 2010. 7-10 betlar http://unctad.org/en/Docs/ditctab20103f
6. World Intellectual Property Organization (WIPO). Guide on Surveying the Economic Contribution of

the Copyright-Based Industries. WIPO, 2003. 26-35 pages. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/copyright/893/wipo_pub_893f
7. At Burns Owens Partnership Consulting. Mapping the Creative industries: a toolkit. British Council, London, 2010. 13-16 pages https://www.americansforthearts.org/sites/default/f
8. Permanent Secretariat of the Latin American and Caribbean Economic System (SELA). (Year). Incentive to Cultural and Creative Industries in Latin America and the Caribbean. Caracas: SELA. 15-pages
9. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktyabrdagi “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ–970-son Qonuni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-7129258
10. Айман Мусаева, Анар Молдашева, *Стратегические документы в управлении культурой и искусством в странах Центральной Азии* Central Asian Journal of Art Studies Volume.10-2, 2025. https://doi.org/10.47940/cajas.v10i2.963
11. Press Reliz. UNESCO reports persistent gender inequalities in cultural and creative industries| 2023 https://www.unesco.org/en/articles/unesco-s
12. Throsby, D. (2008). The concentric circles model of the cultural industries. Cultural Trends, 17(3), 147-164. https://www.researchgate.net/publication/248952696
13. Rania Alzrair, Victoria Khnouf, Raneem Ghazi Aldeki, Imad-Addin Almasri. Creative Economy and Sustainable Development in Developing Economies: Comparative Evaluation of China and United Arab Emirates// Journal of Service, Innovation and Sustainable Development // 2024 https://www.researchgate.net/publication/38299648s
14. UNESCO spotlights how digital learning can promote equity in low-resource contexts | 2025. https://www.unesco.org/en/articles/unescos
15. Iastremska, O., Martynenko, M., Goryuk, Y., Demchenko, H., & Budreiko, M. (2025). The The Impact of the Experience Economy on the Sustainable Development Strategy of Companies in the European Union and Great Britain. Problemy Ekorozwoju Problems of Sustainable Development, 20(2), 213–222. https://doi.org/10.35784/preko.6963
16. CIPA Heritage School 2025: 3D Surveying and Modelling Techniques for Cultural Heritage Documentation | 2026. https://www.icomos.org/event/cipa/

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/1**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz